2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 119 (908), 2023-yil 17-iyun, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

2023 9-IYUL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Joriy yil 9-iyul kuni davlatimiz va xalqimiz hayotida muhim siyosiy voqea — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tadi. Markaziy saylov komissiyasi ushbu siyosiy tadbirni xalqaro standartlar va milliy qonunchilikka muvofiq o‘tkazish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

SAYLOVOLDI TASHVIQOTI

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI KAMPANIYASINING MUHIM BOSQICHI

Saylov kodeksida muddatidan ilgari Prezident saylovi tayinlangan taqdirda saylov ikki oy ichida o‘tkazilishi belgilangan. Bunda saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishga doir tadbirlarni amalga oshirish muddatlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Davomi 3-betda

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

Jizzax: TARAQQIYOT SARI DADIL QADAM

Yaqin kelajakda O‘zbekiston choy import qiluvchi mamlakatdan eksport qiluvchi o‘lkaga aylanadi

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda “Inson qadri uchun” tamoyili ustuvorlik kasb etmoqda. “Inson – jamiyat – davlat” g‘oyasi davlatimizning eng oliy maqsadiga aylandi. Har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti, zamonaviy infratuzilma, ijtimoiy himoya tizimi va sog‘lom ekologik muhit yaratish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish esa asosiy vazifalarimiz hisoblanadi.

Yurtimiz hududining markaziy qismida joylashgan Jizzax viloyatida ham mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tobora olg‘a odimlamoqda. Qaysi sohani olmang, rivojlanish sari ilgarilab borayotganiga guvoh bo‘lasiz. Jizzaxda qurilayotgan turar joy, ma’muriy va xizmat ko‘rsatish binolari, ishlab chiqarish korxonalari ko‘lami hududda shu paytga qadar bunday ulkan o‘zgarishlar bo‘lmaganini ko‘rsatib turibdi.

Davomi 2-betda

BUNYODKORLIK MANZILLARI

TEMIR YO‘L BORGAN JOYDA hayot jonlanadi

Vaqtning har bir daqiqasi g‘animat va qadrli. Shu ma’noda, zamonaviy transport vositalari uzog‘imizni yaqin, mushkulimizni oson qilib keladi. Misol uchun, 2017-yilga qadar Toshkent shahridan Urganchga qatnovchi poyezdlar Navoiy — Uchquduq — Miskin magistrali orqali 1 ming 64 kilometr yo‘l bosar edi. 2018-yilda Buxoro — Miskin temir yo‘li qurilib, Xivagacha masofa 242 kilometrga qisqardi.

Yo‘lning qisqargani yaxshi. Lekin ana shu masofani yanada tezroq bosib o‘tishning imkoni bormi? Albatta, bor. Buning uchun ushbu magistralni elektrlashtirish va uchqur poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish zarur. Chunki elektr poyezdining unumdorligi 4,5 barobar yuqori. Yo‘lning samaradorligi shunga yarasha ancha oshadi. Masalan, poyezdlarning yuqori tezligi soatiga 250 kilometrgacha bo‘lishi yo‘lovchilarning Toshkentdan Urganchgacha yetib borish vaqtini 14 soatdan 6 soatga, Buxorodan Xivagacha esa 8 soatdan 3 soatgacha qisqartiradi. Bu aholi va mehmonlarga katta qulaylik yaratib, turizm rivojida ham muhim omil bo‘ladi.

Tezlik evaziga temir yo‘lning o‘tkazuvchanligi ham oshadi. Yuk tashish imkoniyati yiliga qo‘shimcha 11 million tonnagacha, yo‘lovchilar soni 2 million 300 ming nafarga ko‘payadi. Poyezdlar elektr energiyasida yurishi hisobiga yiliga 18 ming tonna dizel yoqilg‘isi tejaladi.

Davomi 4-betda

YANGI O‘ZBEKISTONNING MUVAFFAQIYATLARI MAMLAKATNING XORIJIY SHERIKLAR BILAN HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN OCHIQLIK SIYOSATINI O‘ZIDA AKS ETTIRADI

Vashingtonda yangi O‘zbekiston mavzusiga bag‘ishlangan taqdimot bo‘lib o‘tdi

Prezident sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish ishlari doirasida mamlakatimiz diplomatiya missiyasi tomonidan AQSH Milliy press-klubi bilan hamkorlikda Amerikaning yetakchi va AQSH poytaxtida akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro ommaviy axborot vositalari vakillari uchun “Yangi O‘zbekiston” taqdimoti uyushtirildi.

Davomi 2-betda

TABIAT VA INSON

YASHILLIKKA BURKANSIN OLAM

Cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish masalasi bugun dunyodagi eng global ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda jahonda iqlim o‘zgarishi yuz berayotgani, ichimlik suv, o‘rmonlar, yashil hududlar tobora kamayib borayotgani dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Hozir sayyoramizdagi o‘rmonlarning umumiy maydoni 38 million kvadrat kilometrni, ya’ni quruqlikning uchdan bir qismini tashkil etib, uning atigi 13 foizi muhofaza etiladigan hududlar toifasiga kiradi.

O‘rmonlar atmosferaga is gazi tashlamalarini kamaytirib, kislorod ishlab chiqarishni ta’minlaydi va yomg‘irli bulutlarni hosil qiladi. Biroq har kuni dunyo o‘rmonlari maydoni muttasil kamayib bormoqda va har soniyada Yer yuzi 1,5 gektardan ortiq tabiiy daraxtzorni yo‘qotmoqda.

17-iyun — Jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanadi. 1994-yil xuddi shu sanada BMTning cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi qabul qilingan. Mazkur xalqaro hujjat 1995-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Osiyo qit’asida birinchilardan bo‘lib ratifikatsiya qilingan. Ayni paytda bu konvensiyani dunyoning 196 mamlakati qo‘llab-quvvatlab keladi.

Davomi 4-betda

MAHALLIYLASHTIRISH

HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYMOQDA

Farg‘ona shahrida hududiy tarmoqlararo savdo yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Unda viloyatda to‘qimachilik va ipakni qayta ishlash, charm-poyabzal, mebelsozlik, neft-gaz sanoati, muqobil energiya, qurilish, kimyo sanoati, elektrotexnika va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘z mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Davomi 2-betda

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

Jizzax: TARAQQIYOT SARI DADIL QADAM

Yaqin kelajakda O‘zbekiston choy import qiluvchi mamlakatdan eksport qiluvchi o‘lkaga aylanadi

Abduvali MUSTANOV,
Jizzax viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Barcha sohalardagi islohotlar samarasi o‘laroq, ishlab chiqarish korxonalari sonining oshib borishi natijasida viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi tarixda ilk bor 27,1 trillion so‘mga yetdi.

Joriy yilning o‘zida viloyatda 590 million dollarlik 8 ta yirik loyiha va 656 million dollarlik 136 ta hududiy sanoat loyihasi ishga tushiriladi. Natijada 8,1 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 14 foiz oshadi. Maxsus sanoat zonalarida umumiy qiymati 150 million dollarlik 58 ta loyiha ishga tushiriladi.

“Uchquloch” qo‘rg‘oshin-rux konini qayta tiklash loyihasi ishga tushirildi. Kondan yiliga ochiq usulda 500 ming tonna yarimmetall ruda qazib olinib, loyiha doirasida yaqin kelajakda rudani qayta ishlash fabrikasi quriladi. Natijada har yili 5 ming 400 tonna rux konsentrati hamda 18 ming 400 tonna qo‘rg‘oshin konsentrati olinadi. Loyiha bo‘yicha mavjud rudalar ombori va maydalash-ortish uzeli to‘liq ta’mirlanadi. Tashqi muhandislik kommunikatsiyalari barpo etiladi. Avtomobil va temir yo‘llarda rekonstruksiya ishlari olib boriladi. Muhimi, loyiha amalga oshirilishi natijasida kamida 600 ish o‘rni yaratiladi hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

G‘allaorol tumanidagi “Qo‘ytosh” konini o‘zlashtirish va atrofida geologiya qidiruv ishlari olib borish davom etmoqda. Umuman, ushbu sohada qiymati 460 million dollarlik 31 ta investitsiya loyihasini ishga tushirish belgilangan.

Viloyatda aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida 2022-yilgi uy-joy dasturi doirasida 1504 xonadonli 49 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun jami 19,7 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Bu shuncha xonadonning og‘iri yengil bo‘ldi, oilaga quvonch va shodlik kirdi, degani. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan maqsad ham shu-ku, aslida.

Joriy yilda turli massivlarda jami 3 ming 15 xonadonli 79 ta ko‘p qavatli uy-joy qurilib, zaruriy infratuzilma bilan ta’minlanadi. Yana minglab yurtdoshlarimiz uyli-joyli bo‘ladi. Eng xayrli, adolatli tomoni shundaki, bu uylar, asosan, uysiz, yordamga muhtoj oilalarga beriladi. Uylardagi sharoitlar esa katta shaharlardagidan aslo qolishmaydi.

Viloyatda “Yashil iqtisodiyot”ni joriy etish rejalari ham jadal amalga oshirilmoqda. Davlat idoralari va ishlab chiqarish korxonalari, fuqarolarning xonadonlariga quyosh panellari, isitish uskunalari o‘rnatilmoqda. Demak, endi qishli-qirovli, sovuq kunlarda ushbu korxonalar va idoralar ishchilari, xonadonlar egalari bugun elektr o‘chib qolmasmikan, degan xavotir bilan yashamaydi.

G‘allaorol tumanida Birlashgan Arab Amirliklari “Masdar” kompaniyasining 200 million dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyasi hisobiga 220 megabaytli yirik quyosh stansiyasi ishga tushirilishi natijasida joriy yilda 100 million kilovatt-soat va 2024-yilda to‘liq quvvatga chiqib, 500 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Forishda 150 megabayt quvvatga ega yirik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 ta obyektda quvvati 30 megabayt bo‘lgan kichik fotoelektr stansiyalari barpo etiladi. Zafarobod tumani hududidan o‘tuvchi kichik daryochada qiymati 4,3 milliard so‘mlik 2 ta mikro gidroelektrstansiya quriladi.

Aholining ko‘makka muhtoj qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bandligini ta’minlash maqsadida o‘tgan yili boshlangan yangi tizim asosida dehqon xo‘jaligini yuritish uchun paxta-g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratish ishlari davom ettirilib, joriy yilda 4,5 ming gektar yer maydoni mazkur toifadagi aholiga berilishi belgilangan. Shuningdek, sohada mavsumiy ishlarga jalb qilish orqali faqatgina qishloq xo‘jaligi yo‘nalishining o‘zida 75 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Shuni ham alohida ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 2-maydagi “2023-2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori viloyatning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqishiga yo‘l ochdi.

Mazkur qaror bilan viloyatni kompleks rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, foydalanilmayotgan davlat aktivlari, mavjud tabiiy resurslarni ishga tushirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlari va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va ta’mirlash orqali aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga oid chora-tadbirlar belgilab olindi. Mazkur hujjatga asosan ajratilgan mablag‘lar hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yo‘lbo‘yi infratuzilmasidan foydalangan holda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash, kommunikatsiya tarmoqlarini qurish, ta’mirlash va obodonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish natijasida viloyat aholisining 530 ming nafari yoki 36 foizining yashash sharoitlari yaxshilanishiga erishiladi. Jumladan, joriy yilda 135 ming nafar aholini ish bilan band qilish orqali viloyatda ishsizlik darajasi hozirgi 9,3 foizdan 8,7 foizga tushiriladi.

Viloyatimizda pillachilikni rivojlantirish orqali tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari, shuningdek, respublikamiz bo‘yicha yangilik bo‘lishi kutilayotgan Baxmal, Zomin, Yangiobod tumanlarida choy yetishtirishni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilmoqda. Agar bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, O‘zbekiston choy import qiluvchi mamlakatdan eksport qiluvchi o‘lkaga aylanadi.

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va xomashyo zaxiralarini chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish maqsadida 25 ta yer qa’ri uchastkasi auksion savdolariga chiqariladi.

Aholiga yangi tizim asosida dehqon xo‘jaligi uchun ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida 16 ta “Agregator” loyihasi amalga oshirilib, shu orqali viloyatdagi 18 ta mahallada 1200 nafar aholi uchun ish o‘rni yaratiladi. Yiliga o‘rtacha 15,4 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari aholidan yig‘ib olinib, mahalliy va tashqi bozorlarga sotilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur qaror bilan qishloq xo‘jaligi sohasida ko‘p yillardan buyon ishlatilmasdan turgan 1371,7 gektar yer maydonlarining toifasi o‘zgartirilishi natijasida umumiy qiymati 1,7 trillion so‘mlik 1250 ta loyiha tashkil etiladi va 5400 nafar fuqaro ishli bo‘ladi. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasida jami 293,5 gektar infratuzilma mavjud bo‘lgan yo‘lbo‘yi yer maydonlarida qiymati 125 milliard so‘mlik 1051 ta loyiha amalga oshiriladi.

Qaror asosida 8 ta mehmonxona, 407 ta savdo do‘koni, 124 ta umumiy ovqatlanish, 118 ta avtomobillarga xizmat ko‘rsatish, 63 ta sanitariya-gigiyena va 151 ta maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, 31 ta sport va sog‘lomlashtirish markazi, 98 ta kemping, 42 ta basseyn hamda tibbiy xizmat sohalarida 9 ta loyiha ishga tushiriladi. Sanoat sohasida jami 1078,3 gektar yer maydonida umumiy qiymati 1,6 trillion so‘mlik 192 ta loyiha tashkil etilishi hisobiga 2650 ta yangi ish o‘rni vujudga keladi.

Mazkur qaror bilan joriy yilda viloyatda 2 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, umumiy qiymati 4,8 trillion so‘mlik 36 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi. Ushbu loyihalar doirasida 343 million dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorij investitsiyasi va kreditlari jalb qilinadi. Natijada yangi mahsulot turlari ishlab chiqarilib, shu orqali qo‘shimcha qiymat zanjiri yaratiladi.

Ushbu kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash uchun jami 113,8 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi. Shuningdek, umumiy qiymati 449,8 million dollar bo‘lgan 20 ta yirik loyihani amalga oshirish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, 8 ta loyiha doirasida xorijiy brendlar asosida ishlab chiqarishni o‘zlashtirish orqali 935 million dollarlik investitsiya jalb qilinib, elektromobillar va quyosh panellari ishlab chiqarish boshlanadi.

Qarorda dunyoga mashhur Italiyaning “Cotonella”, Rossiyaning “Ostin”, “Tvoye”, “Gloria jeans” hamda “Faktor Zolla” kompaniyalari brendi asosida hududdagi korxonalar tomonidan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yiladi. Eng muhimi, tayyor mahsulotlar Yevropa va Osiyo davlatlariga eksport qilinishi belgilangan.

Viloyat aholisi uchun eng zarur va ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy infratuzilma obyektlari va kommunikatsiyalar holatini yanada yaxshilash uchun 205 ta obyektga respublika budjetidan 406,1 milliard so‘m mablag‘ ajratilmoqda. Ushbu mablag‘ hisobiga viloyatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi qurilish, infratuzilmani rivojlantirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash muassasalari binolarini zamonaviy me’morchilik asosida bunyod etish ishlari yanada kengayadi.

Viloyatning hozirgi taraqqiyot ko‘rsatkichlari, 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan ulkan ijtimoiy va iqtisodiy loyiha hamda ustuvor vazifalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Jizzax yaqin kelajakda yangi O‘zbekistonning eng obod va rivojlangan hududiga aylanadi.

YANGI O‘ZBEKISTONNING MUVAFFAQIYATLARI MAMLAKATNING XORIJIY SHERIKLAR BILAN HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN OCHIQLIK SIYOSATINI O‘ZIDA AKS ETTIRADI

Vashingtonda yangi O‘zbekiston mavzusiga bag‘ishlangan taqdimot bo‘lib o‘tdi

Boshlanishi 1-betda

Tadbirda “Bloomberg”, “BBC News”, “The Diplomat”, “The Hill”, CNBC, “ZDF German TV”, “Voice of America”, “Spectrum News”, “Washington Diplomat”, “Axios”, “Turan News Agency” kabi OAV vakillaridan iborat 35 nafar jurnalist va mediamenejer ishtirok etdi.

Tadbir avvalida uning ishtirokchilari O‘zbekistonda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlarning borishi va ular berayotgan salmoqli natijalar, qabul qilingan yangi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, tashqi va mintaqaviy siyosatning ustuvorliklari hamda prezident saylovi kampaniyasining borishi bilan yaqindan tanishdilar. Ko‘p qirrali O‘zbekiston — Amerika strategik sherikligi izchil rivojlanib borayotgani ham islohotlar siyosatining samarasi ekani alohida ta’kidlandi.

Tadbir doirasida O‘zbekistonning sarmoyaviy va sayyohlik salohiyati hamda mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosiga bag‘ishlangan taqdimot o‘tkazildi.

Milliy press-klub vitse-prezidenti, “Bloomberg” nashri sharhlovchisi Emili Uilkins so‘z va matbuot erkinligini ta’minlash muhimligini ta’kidlab, O‘zbekistonda bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishilayotganidan voqif ekanini qayd etdi. U mamlakatimizning sayyohlik va iqtisodiy salohiyati taqdimotini yuqori baholash barobarida Vashington shahri jurnalistlar hamjamiyatining O‘zbekiston haqida xabardorligini oshirish borasida diplomatiya missiyasi bilan yaqin hamkorlikka tayyor ekanini bildirdi.

> **“The Hill” nashri muxbiri Sarakshi Rai “O‘zbekiston madaniyati va milliy taomlaridan, shuningdek, respublikada ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning yuqori sur’atlari hamda yaratilayotgan sayyohlik va sarmoyaviy imkoniyatlardan hayratlangani”ni ma’lum qildi.**

“The Hill” nashri muxbiri Sarakshi Rai “O‘zbekiston madaniyati va milliy taomlaridan, shuningdek, respublikada ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning yuqori sur’atlari hamda yaratilayotgan sayyohlik va sarmoyaviy imkoniyatlardan hayratlangani”ni ma’lum qildi.

Mustaqil jurnalist Flavius Mixayes taqdimot bilan tanishgach, turli dinlar vakillari (musulmonlar, nasroniylar, yahudiylar) asrlar davomida tinch-totuv yashab kelayotgan O‘zbekistonda hukm surayotgan tolerantlik muhitidan ta’sirlanganini e’tirof etdi.

“Men bugun ikki ming yildan ziyod davr mobaynida o‘zbek jamiyatining bir qismi bo‘lgan yahudiy jamoasining vakillari mamlakatingizda tinch-totuv yashab kelayotganini kashf etdim. Bag‘rikenglikning bunday noyob tajribasi haqida tez-tez aytib turish kerak, shunda odamlar bu haqda ko‘proq biladi”, dedi u.

“Men dunyoning ko‘plab davlatlarida bo‘lganman va endi mening yangi maqsadim bor — O‘zbekistonga borishni istayapman. Bugun biz mamlakatingiz haqida ko‘p narsalarni bilib olganimiz holda O‘zbekistonni qayta kashf etdik. Shubha yo‘qki, yurtingiz ulkan salohiyatga ega va men uni o‘z ko‘zim bilan ko‘rishni maqsad qildim”, dedi “Associated Press” agentligining Hindiston va Yaponiyadagi sobiq muxbiri Mayron Belkind.

Umuman olganda, Amerikaning yetakchi va Vashingtonda akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro ommaviy axborot vositalari vakillari yakdillik bilan diplomatik vakolatxonaning keng qamrovda jurnalistlarni taklif etgan holda tashkil qilgan ushbu tadbiri O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ochiqlik siyosatini o‘zida aks ettiradi, degan fikrni bildirdi.

“Dunyo” AA
Vashington

MAHALLIYLASHTIRISH

HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ishlab chiqarishga joriy etilgan istiqbolli loyihalar mahalliy xomashyodan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlash, yangi ish o‘rinlari tashkil etish imkoniyatini bermoqda. Mahsulotlar pishiq-puxta va hamyonbopligi bilan ajralib turadi.

— Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi korxonalar sanoat salohiyatini, import o‘rnini bosuvchi mahsulot turlari ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro tajriba almashish, mahalliy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirish maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda, — deydi Farg‘ona viloyati hokimligi mahalliy sanoatni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Mansurjon Najmiddinov. — Ayni kunda 140 ta yangi loyiha bo‘yicha ish olib borilmoqda. Buning hisobiga import o‘rnini bosuvchi 247,3 million dollarlikdan ortiq mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi, 32,8 million dollarlik eksport qilinib, 1200 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi.

Tarmoqlararo sanoat yarmarkasidan o‘rin olgan mahsulotlar rang-barang va iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi.

Farg‘ona davlat universiteti fizika texnologiyalari fakulteti ustoz va talaba yoshlari tomonidan ishlab chiqarishga joriy etilgan shamol suv nasoslari, Farg‘ona politexnika instituti yoshlar innovatsiya markazi, “Oltiariq-innovatsiya” MCHJ tomonidan taqdim qilingan fotoelektrik avtonom svetofor, ipak va paxta tolasini qayta ishlash, kimyo, charm-poyabzal, mebelsozlik yo‘nalishlarida ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi, manfaatli hamkorlik yuzasidan shartnomalar imzolandi.

— Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida Uchko‘prik tumanidagi “Mehrigiyo” kichik korxonasi bilan hamkorlik borasida kelishuvga erishdik, — deydi qirg‘izistonlik tadbirkor Oysuluv Jo‘rayeva. — Ishimiz dorivor giyohlar yetishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq. Yarmarka doirasida “Mehrigiyo” korxonasining mahalliy sharoitda lavanda yetishtirish, qayta ishlash bilan bog‘liq amaliy ish tajribalari bilan tanishdik. Etnoturizm, ekosayohat, tibbiyot turizmi yo‘nalishlarida hamkorlik bo‘yicha manfaatli shartnomalar imzoladik.

Bu kabi savdo yarmarkalari iqtisodiy faollik oshishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari ko‘payishi, tadbirkorlar soni ortishiga ham xizmat qiladi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

yuz.uz
yuz.uznews
yuz_official
yuz.uz_news

TARAQQIYOT YO‘LI

SAYLOVOLDI TASHVIQOTI

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI KAMPANIYASINING MUHIM BOSQICHI

Xushvaqt HAYITOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi uchun saylov kampaniyasi joriy yilning 10-may kunidan boshlanishi belgilanib, saylovni o‘tkazish kalendar rejasi tasdiqlandi. Saylov kodeksiga ko‘ra, saylovoldi tashviqoti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro‘yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan boshlanadi va ovoz berishga bir kun qolganida tugaydi.

Shu kunlarda Prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti avj pallaga kirgan. Bu galgi saylovda nomzodlarning tashviqot jarayonlari joriy yil 7-iyun kuni boshlanib, 8-iyulgacha davom etadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida bunday tashviqotga yo‘l qo‘yilmaydi.

Saylovoldi tashviqotini o‘tkazish tartibi 2021-yil 14-aprelda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to‘g‘risidagi nizom normalariga mos tashkil etilishini ham qayd etish o‘rinlidir.

Saylovoldi tashviqoti — nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun o‘ziga xos raqobat maydoni

Saylovoldi tashviqoti saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzodni yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Qonunchilikka ko‘ra, nomzodlar saylovoldi tashviqotini yuritish borasida teng huquqlarga ega. Nomzod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi uchun uning nomidan ishonchli vakillar saylovoldi tashviqotini o‘tkazishi mumkin. Saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirlarda nomzodlarga o‘zining kelgusidagi faoliyati dasturi bilan so‘zga chiqish huquqi beriladi.

Saylovoldi tashviqoti saylov jarayoni qatnashchilari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Prezidentlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun o‘ziga xos raqobat maydoni hamdir. Tashviqotning qanday o‘tkazilishi siyosiy partiya elektorati soni ko‘payishi yoki kamayishiga, mavqeining oshishi yoki tushishiga olib kelishi mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, YXHTning Insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiyasi Kopengagen kengashi va boshqa qator xalqaro huquqiy hujjatlarda saylovchilar, nomzodlar va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini yuritishga oid huquqlari kafolatlari nazarda tutilgan. Ushbu hujjatlardagi asosiy talablar milliy saylov tizimimizga implementatsiya qilingan.

Qonunchilikka ko‘ra, tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek, pul mablag‘lari to‘lash bilan qo‘shib yuritish, noto‘g‘ri axborotni, nomzodlarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma’lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi dasturi muayyan talablarga javob berishi shart. Xususan, davlat suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilmagan bo‘lishi, xalqning salomatligi hamda ma’naviyatiga tahdid solmasligi, urush, milliy nafrat, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qilmasligi, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik ishlatib o‘zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari hamda erkinliklarini cheklovchi harakatlarga da’vat qilmasligi kerak.

Saylovoldi tashviqotini Prezidentlikka nomzodlar nomidan ularning ishonchli vakillari ham o‘tkazishi mumkin. Saylov kodeksiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo‘lishga haqlidir. Ishonchli vakillar nomzodga saylov kampaniyasini o‘tkazishda yordam beradi, saylash uchun tashviqot olib boradi, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan bo‘ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalaydi.

Prezidentlikka nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga teng huquqli, sog‘lom raqobatga asoslangan saylovoldi tashviqoti yuritishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va standartlariga to‘la mos bo‘lib, adolat va tenglik tamoyillaridan kelib chiqadi. Ushbu tenglik yuqorida sanab o‘tilgan barcha saylovoldi tashviqoti turlarida bir xil ta’minlanadi.

> **Saylovchilar bilan uchrashuvlar nomzodlar va ularning ishonchli vakillari tomonidan mustaqil ravishda o‘tkazilib, bu uchrashuvlarni o‘tkazish joyi va vaqti haqida okrug yoki uchastka komissiyasiga ma’lum qilinadi. Nomzodlar va ularning ishonchli vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarni tashkil etish va o‘tkazishda yordam ko‘rsatish iltimosi bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat birlashmalariga, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilishga haqli.**

riallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Tashviqot davrihajmi va vaqti saylovda ishtirok etishga ijozat berilgan siyosiy partiyalarning fikrini inobatga olgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

2023 9-IYUL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

> **OAV u yoki bu nomzodning muvaffaqiyat qozonishi yoxud zarur ovozlar miqdorini ololmasligida muhim rol o‘ynaydi. Chunki saylovoldi uchrashuvlari va yig‘ilishlarida yuzlab saylovchilar ishtirok etsa, OAV orqali millionlab saylovchilarga ma’lumot yetkazib beriladi. Shu sababli, Prezidentlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning barchasi saylovoldi tashviqoti yuritish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquqqa egaligi kafolatlangan.**

Saylovoldi tashviqoti yuritish tartibi

Nomzodlarga o‘zining kelgusidagi faoliyati dasturi bilan so‘zga chiqish huquqi beriladi. Bu dasturni nomzodning roziligisiz tahrir qilish mumkin emas. Shuningdek, bosma OAVda chop etish uchun materiallar nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, nomzodlarni ko‘rsatgan siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etiladi. Saylovoldi tashviqoti materiallari ularni taqdim etgan shaxslarning roziligisiz tahrir qilinmaydi.

Tashviqot nomzodning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to‘g‘risidagi axborotni nomzodni yoqlab ovoz berishga da’vat etgan holda tarqatish, nomzod to‘g‘risida axborot tarqatib, uni yoqlab ovoz berishga chaqirish shaklida yuritiladi. Shuningdek, saylovoldi tashviqoti omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot anjumanlari, fuqarolarning yig‘ilishlari, intervyular, OAVlarda chiqishlar, roliklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti OAV, telekommunikatsiya, internet axborot tarmoqlarida, shuningdek, bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Tashviqot davrihajmi va vaqti saylovda ishtirok etishga ijozat berilgan siyosiy partiyalarning fikrini inobatga olgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Shuningdek, davlat teleradiokanallarida ajratiladigan bepul efir vaqti qoida tariqasida, eng ko‘p auditoriya qamrab olinadigan vaqtga (praym-taymga) to‘g‘ri kelishi kerak. Bepul efir vaqtidan nomzodlar ommaviy debatlar, munozaralar, matbuot anjumanlari, intervyu, chiqishlar, saylovchilar yig‘ilishlari, nomzod to‘g‘risida roliklar joylashtirish va hokazolar uchun foydalanishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti doirasida teleradiokanallarda joylashtirishga mo‘ljallangan materiallar tegishli kanallar bilan hamkorlikda nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, nomzodlarni ko‘rsatgan siyosiy partiyalar tomonidan tayyorlanadi.

Prezidentlikka nomzodlar saylovoldi tashviqotini bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini moneliksiz chiqarish hamda tarqatish orqali o‘tkazadi. Mana shu masalada ham nomzodlarning tengligi ta’minlanishining huquqiy asoslari belgilab qo‘yilgan. Tashviqot materiallari O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlanishi kerak.

Bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarida buyurtma bergan va tayyorlagan yuridik shaxslar nomi, joylashgan manzili, adadi, chiqarilgan sanasi va materialga tegishli boshqa axborotlar ko‘rsatilishi shart.

Saylovoldi tashviqoti materiallari xonalarga, binolarga, inshootlarga va boshqa obyektlarga osib qo‘yilishi mumkin. Haykallarga, yodgorliklarga, shuningdek, saylov komissiyasi joylashgan binolarga, ovoz berish xonalariga bosma saylovoldi tashviqoti materiallarini joylashtirish taqiqlanadi.

Nomzodlarning avtobiografik ma’lumotlari va ularning saylovoldi dasturlari to‘g‘risidagi axborot materiallari (plakatlari) saylovoldi tashviqoti materiallari hisoblanmaydi. Shu bois, ushbu ma’lumotlar saylov uchastkalari binosida ham mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Elektorat bilan jonli muloqotning ahamiyati

Saylovoldi tashviqotida saylovchilar bilan uchrashuvlar katta o‘rin tutadi. Chunki bu tadbirlarda nomzodlar, bir tomondan, bevosita saylovchilar bilan muloqotga kirishadi, ikkinchi tomondan esa saylovchilar nomzod bilan jonli muloqot asosida qiziqtirgan savollarini berib, nomzod haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Shu bois, nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish borasida teng imkoniyat berilishini ta’minlash muhim masaladir. Nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari ochiq va oshkora tarzda o‘tkaziladi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar nomzodlar va ularning ishonchli vakillari tomonidan mustaqil ravishda o‘tkazilib, bu uchrashuvlarni o‘tkazish joyi va vaqti haqida okrug yoki uchastka komissiyasiga ma’lum qilinadi. Nomzodlar va ularning ishonchli vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarni tashkil etish va o‘tkazishda yordam ko‘rsatish iltimosi bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat birlashmalariga, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilishga haqli.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

— nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish uchun jihozlangan xonalarni bepul taqdim etishi;

— zarur ma’lumot va axborot materiallarini olishda nomzodlarga ko‘maklashishi;

— saylovchilarni nomzodlar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor qilish masalasida nomzodlarga ko‘maklashishi kerak.

Nomzodlarga va ularning ishonchli vakillariga saylovoldi tashviqotini saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish orqali yuritish uchun teng sharoitlar beriladi.

Shu o‘rinda ikki yoki undan ortiq nomzod yoki ularning ishonchli vakillari birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishga yoxud boshqa nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqlimi, degan savol tug‘ilishi mumkin.

Qonunchilikka muvofiq, nomzodlar va ularning ishonchli vakillari boshqa nomzodlar yoki ularning ishonchli vakillari bilan birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishga yoxud boshqa nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli. Fikrimizcha, bitta yig‘ilishda ikki va undan ortiq nomzodning ishtirok etishi saylovchilarda ularning dasturlarini va o‘zlarini bevosita solishtirish orqali muayyan fikrga kelish imkonini beradi.

Saylovoldi tashviqotini yuritish borasidagi saylov qonunchiligining o‘ziga xos jihati shundaki, nomzodlarga va siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqotini yuritish uchun davlat budjetidan mablag‘ ajratiladi. Ularga ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng sharoitlar yaratiladi. Ayrim mamlakatlar, xususan, AQSH, Polsha va boshqa davlatlarda saylovoldi tashviqoti yuritish uchun davlat mablag‘lari ajratilishi ko‘zda tutilmagan. Gretsiya, Isroil va Fransiyada esa ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda efir vaqti siyosiy partiyalarning parlamentda tutgan o‘rni va ijtimoiy faolligiga qarab ajratiladi.

Italiya, Fransiya, Rossiya va boshqa davlatlarda saylov kuni tashviqot yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi. Fransiyada ovoz berish kuniga 7 kun qolganida, Vengriyada 8 kun qolganida jamoat fikri so‘rovlari natijalari, saylov natijalari prognozlari va o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlar nashr etilmaydi.

Mamlakatimizda saylovoldi tashviqoti jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tartibi qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilgan. Ya’ni nomzodlar, siyosiy partiyalar ommaviy axborot vositalaridan qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq holda teng foydalanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, saylov qonunchiligimiz saylovoldi tashviqoti yuritishda ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyos qilinganda o‘ziga xos afzalliklarga ega.

Xulosa qilib aytganda, saylovoldi tashviqoti saylov jarayonining muhim qismi bo‘lib, unda Prezidentlikka nomzodlar uchun bir xil shart-sharoit ta’minlanadi. Jumladan, nomzodlarga va siyosiy partiyalarga saylovoldi dasturlarining mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish, saylovchilar bilan bevosita uchrashuvlar o‘tkazish orqali tanishtirishda teng huquq va imkoniyatlar yaratiladi. Ushbu huquqiy kafolatlar, nomzodlar va siyosiy partiyalarga o‘z dasturlarini keng targ‘ib qilish imkonini beradi hamda saylovchilarga nomzodlar orasidan eng munosibini tanlashga sharoit yaratadi. Shuningdek, saylovning demokratik mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.

> **Qonunchilikka muvofiq, nomzodlar va ularning ishonchli vakillari boshqa nomzodlar yoki ularning ishonchli vakillari bilan birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishga yoxud boshqa nomzodlar tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli. Fikrimizcha, bitta yig‘ilishda ikki va undan ortiq nomzodning ishtirok etishi saylovchilarda ularning dasturlarini va o‘zlarini bevosita solishtirish orqali muayyan fikrga kelish imkonini beradi.**

> **Angren — Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li ishga tushishi bilan Farg‘ona vodiysi viloyatlarini mamlakatimizning qolgan xududlari bilan bog‘lab, yurtimizda yagona milliy tizimni yaratish borasidagi rejalarni to‘liq amalga oshirishga zamin yaratildi. 2020-yildan boshlab esa elektrovozda Namangandan chiqib, 5 soat-u 20 daqiqada Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qonni aylanib, yana Namanganga qaytib kelish mumkin bo‘ldi.**

BUNYODKORLIK MANZILLARI

TEMIR YO‘L BORGAN JOYDA *hayot jonlanadi*

Boshlanishi 1-betda

Hozirgi loyihaga hamohang tarzda Nukus shahrigacha bo‘lgan temir yo‘lni ham elektrlashtirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida Toshkent bilan Nukus o‘rtasidagi qatnov vaqti 16 soatdan 7 soatgacha qisqaradi. Ushbu liniya ishga tushirilgach, “Toshkent — Samarqand — Buxoro — Xiva” an’anaviy turistik zanjiriga Qoraqalpog‘iston ham qo‘shiladi. Xorijiy va mahalliy sayyohlarning yurtimizda 4-5 kungacha bo‘lishini ta’minlash, turistik xizmatlar eksportini 100 million dollarga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Aslida, temir yo‘lni elektrlashtirish borasida O‘zbekistonda katta tajriba to‘plangan. Avvalo, Toshguzar — Boysun — Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurilib, keyinroq elektrlashtirildi. 2011-yilda Toshkent — Samarqand yo‘nalishida Markaziy Osiyoda dastlabki yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektropoyezdlari harakati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, keyinchalik Qarshi, Buxoro va Shahrisabz shaharlariga ham qatnovlar amalga oshirila boshlandi. Maroqand — Qarshi, undan Dehqonobod va Termizgacha bo‘lgan yo‘nalishlarda ham elektrlashtirishga doir loyihalar amalga oshirildi.

Angren — Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li ishga tushishi bilan Farg‘ona vodiysi viloyatlarini mamlakatimizning qolgan hududlari bilan bog‘lab, yurtimizda yagona milliy tizimni yaratish borasidagi rejalarni to‘liq amalga oshirishga zamin yaratildi. 2020-yildan boshlab esa elektrovozda Namangandan chiqib, 5 soat-u 20 daqiqada Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qonni aylanib, yana Namanganga qaytib kelish mumkin bo‘ldi.

Endi navbat Urganch va Xiva shaharlariga yetib keldi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi kelgusida Toshkent — Samarqand — Navoiy — Buxoro — Urganch — Xiva yo‘nalishida tezyurar hamda yuqori tezlikda harakatlanuvchi ekologik xavfsiz elektropoyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Loyihaning qiymati 365 million dollar.

— Elektrlashtirilayotgan Buxoro — Miskin — Urganch — Xiva temir yo‘l uchastkasining umumiy uzunligi 465,5 kilometrni tashkil etadi, — deydi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Kapital qurilish direksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari Jamshid Rasulov. — Loyihada rejalashtirilayotgan ishlarga ko‘ra, tashqi elektr tarmog‘i, elektr tortish nimstansiyasi va elektr tutashtiruvchi tarmoqning 8 ta navbatchilik binosi, yo‘l sozlovchilar uchun tabel binolari, qo‘riqlanadigan 44 ta temir yo‘l kesishmasi, 1 ta avtoyo‘lo‘tkazgich hamda lokomotiv jamoasi uchun 1 ta dam olish uyi quriladi. Shuningdek, vagonlarga texnik xizmat ko‘rsatadigan 2 ta punkt va qismlarga ajratish hamda joriy ta’mirlash sanoat korxonasini rekonstruksiya qilish, 5 ta texnik xizmat ko‘rsatish binosi va boshqa texnik xizmat inshootlarini barpo qilish ko‘zda tutilgan. Uchastka bo‘ylab kontakt tarmog‘ining jami 12 mingdan ortiq poydevori va 10 mingdan ko‘proq temirbeton tayanch ustun o‘rnatish hamda kontakt tarmog‘ini montaj qilish, mazkur tarmoqqa xizmat ko‘rsatish uchun esa maxsus texnika va himoya vositalari xarid qilinishi belgilangan.

Mazkur loyiha doirasida elektrlashtirish ishlari bir vaqtning o‘zida Buxoro va Xorazm viloyatlari — ikki tomondan bir-biriga qarab amalga oshirilmoqda. Ayni paytda razyezdlar va stansiyalarda, ya’ni Buxoro-1 va Navbahor stansiyasida hamda Parvoz, Kiyikli, Jayhun, Turon razyezdlarida elektr tutashtiruvchi tarmoqning navbatchilik punkti bino va inshootlarida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Yo‘nalishning kontakt tarmog‘ida ham samarali ishlar bajarildi. Xususan, Buxoro-1 — Kiyikli stansiyalari oralig‘ida “1-energomontaj poyezdi” unitar korxonasi tomonidan loyihada belgilangan 4 ming 300 poydevordan 3 ming 575 tasi (83 foiz), 840 dona ankerdan 638 tasi (75 foiz) o‘rnatildi. Xizirbobo stansiyasi hamda Jayhun razyezdi oralig‘ida ham xuddi shunday ishlar boshlab yuborildi. Jayhun razyezdi va Xiva stansiyalari oralig‘idagi yumushlarning qariyb to‘rtdan uch qismi bajarildi.

Temiryo‘lchi mutaxassislar tomonidan shu kungacha Buxoro viloyati hududidan 163,1 kilometr, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlaridan 128,38 kilometr, jami 291,48 kilometr (63 foiz) kontakt tarmog‘i poydevorlari va tayanch ustunlari to‘liq o‘rnatildi. E’tiborlisi, elektrlashtirish ishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy mahsulotlardan poydevor va tayanch beton o‘zimizda, O‘zbekistonda ishlab chiqarilib, uchastka hududlariga o‘z vaqtida yetkazib berilmoqda.

Buxoro va Xorazm viloyati hokimliklari tomonidan tezyurar poyezd o‘tadigan tuman va shaharlarda yo‘lbo‘yi xizmatlar tashkil etish belgilangan. Temir yo‘l borgan joyga madaniyat borishi, hayot jonlanishi inobatga olinib, bekatlar atrofida xuddi avtomobil yo‘llarida bo‘lganidek, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Yana bir vazifa — temir yo‘l bo‘ylab cho‘l iqlimiga mos daraxt va butalar ekish zarur. Bu ham hudud ekologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ham yo‘l bo‘ylariga ko‘rk bag‘ishlaydi.

O‘tgan hafta oxirida temiryo‘lchi quruvchilar Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Nazarbek shaharchasi hududidan o‘tgan temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishmasida barpo etilgan zamonaviy yo‘l o‘tkazgichni foydalanishga topshirdi. Shaharchada va Zangiota tumanida yashovchi aholi Toshkent shahriga, asosan, 4R253 avtomobil yo‘li orqali borib keladi. Transport soni ortishi, ayniqsa, ushbu hududdan o‘tuvchi temir yo‘ldan poyezdlarning kundalik harakati, teplovozlarning manyovrlari tufayli avtomobil yo‘li muayyan muddatga yopib qo‘yilardi. Bunday holatlarning ertalab va kechqurunga to‘g‘ri kelishi esa katta tirbandlik paydo bo‘lishiga olib kelardi.

Aholining ayni boradagi murojaatlari inobatga olinib, 2020-yil 28-dekabrda Prezidentning “2021-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi farmoyishiga asosan, “4R253 “Toshkent shahri — Turkiston sh/x — Qozog‘iston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 3 kilometridagi temir yo‘l ustidan yo‘l o‘tkazgich qurish” loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur loyiha ancha murakkab yechimga ega. Eng avvalo, temir yo‘l va avtomobil yo‘li kesishmasida umumiy uzunligi 398 metr, kengligi 22 metr, ko‘prik osti balandligi 7 metr bo‘lgan tonnel shaklidagi yo‘l o‘tkazgich, uning ustidan esa uzunligi 21,8 metr, kengligi 18,5 metrli uch izli temir yo‘l ko‘prigini qurish, ular kesishmasida yana uzunligi 28 metr, eni 12,5 metrli avtomobil yo‘li o‘tkazgichini barpo etish rejalashtirilgan edi. Buning uchun inshootga tutash bo‘lgan 23 ta uy-joy, tadbirkorlik subyektini ko‘chirish zarur bo‘ldi.

Mana, endi inshootni qurish davrida mahalliy aholining aylanma yo‘llar orqali yurishiga to‘g‘ri kelib, vaqt va mablag‘ yo‘qotishlariga sabab bo‘lgan qiyinchiliklar ortda qoldi. 113 milliard so‘m evaziga qurilgan, umumiy uzunligi 940 metrni tashkil etgan mazkur inshoot xalqimiz xizmatiga topshirildi. Hisob-kitoblarga qaraganda, undan bir kecha-kunduzda o‘rtacha 30 ming atrofida avtotransport vositasi va 24 ming piyoda o‘tib qaytadi.

Rustam HAYDAROV,
jurnalist,
Abdurauf QORJOVOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TABIAT VA INSON

YASHILLIKKA BURKANSIN OLAM

Boshlanishi 1-betda

Hojimurod TOLIPOV,
O‘rmon xo‘jaligi agentligi bosh mutaxassisi,
biologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston Yevroosiyo materigining markaziy qismida, dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan. Mamlakatimizning 80 foizi cho‘l va yarim cho‘llardan iborat bo‘lib, hozirgi vaqtda qariyb 10 million gektar yaylov tubdan yaxshilanishga muhtoj bo‘lsa, ko‘chma qum qariyb 1 million gektar maydonni egallaydi va uning ikki yuz ming gektari so‘nggi vaqtda sug‘oriladigan yerlar atrofida paydo bo‘lgan. Keyingi davrda Orol dengizi suvining qurishi tufayli yana qo‘shimcha 3 million gektardan ortiq maydonda Orolqum cho‘li paydo bo‘ldi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, cho‘llanish jarayoni yanada kuchaydi va ko‘plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Mutaxassislar fikricha, ayni kezda texnologik jihatdan Orolni avvalgi holatiga qaytarishning iloji yo‘q. Bunday sharoitda yagona yo‘l borini asrab qolish, fojia ta’sirini kamaytirish, odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

O‘zbekiston ana shu yo‘nalishlardagi maqsad-vazifalar bo‘yicha muhim takliflarni BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida, xalqaro sammitlarda ilgari surib keladi. Shu bilan birga, yurtimiz imkoniyatlariga tayanib, amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunda asosiy e’tibor Orol dengizining qurigan tubidan millionlab tonna chang va zaharli tuz ko‘tarilishining oldini olish uchun sho‘rga chidamli o‘simliklar ekishga qaratilyapti. Xususan, 2018-2022-yillar davomida dengizning suvi qurigan tubida 1 million 600 ming gektardan ortiq “yashil” qoplamali maydon barpo etildi. Buning uchun saksovul, qorabo‘roq, qandim, cherkez kabi cho‘l o‘simliklaridan qariyb 6 ming tonna urug‘ tayyorlanib, ekildi. 2023-yil bahor mavsumida bunday maydon 128 ming gektarga kengaydi. Ular yana 4-5 yilda quyuq chakalakzorga aylanadi. Joriy yilning kuzgi mavsumida bu ishlar yana davom ettiriladi. Chunki o‘tkazilgan tadqiqotlar Orol dengizi qurigan tubining katta qismini qurg‘oqchilikka va sho‘r tuproqqa chidamli bo‘lgan mahalliy daraxtlar, butalar va o‘t-o‘lanlarni aralash holda ekish hisobiga qayta tiklash mumkinligini ko‘rsatmoqda. Buning natijasida mahalliy aholi salomatligi va farovonligi yaxshilanishi bilan birga, har yili 28−44 million dollar miqdorida qo‘shimcha foyda kelishi, tuproqdan uglerod chiqishining oldini olish va atmosferadan karbonat angidridni yutish orqali iqlim o‘zgarishini yumshatish mumkin.

Orolbo‘yidagi “yashil qoplama”larning aksariyatini saksovulzorlar tashkil etyapti. Saksovulning havo musaffoligini ta’minlashda ham xizmati juda katta. Bir gektar maydondagi to‘rt yillik saksovulzor 1 ming 158 metr kub kislorod ajratib chiqaradi. Bu bamisoli sof havo “fabrikasi” degani.

Shu bois, cho‘llanishning oldini olishda saksovulzorni ko‘paytirishning ahamiyati katta. Barpo etilgan 2 yoshli saksovulzorda shamol ta’sirida qum ko‘chishi 20 foiz, 5 yoshlisida 80 foiz, 7 yoshli saksovulzorda esa to‘liq to‘xtatiladi. Natijada iqlim mo‘tadillashadi, aholining yashashi uchun ijtimoiy-iqtisodiy muhit barqarorligi ta’minlanadi.

Orolbo‘yida saksovullar orasiga yovvoyi hayvonlar va chorva uchun ozuqabop ekinlar ham ekilmoqda. Ushbu hududda o‘nlab artezian quduqlari qazildi. Ulardan suv chiqarilishi natijasida joylarda sun’iy ko‘llar paydo bo‘ldi, ular atrofida qamishzorlar vujudga keldi, daraxt va butalar o‘sa boshladi. Qumliklarda barpo etilgan saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklaridan iborat maydonlar ular bilan uyg‘unlashib, cho‘l ekotizimlari tiklanyapti, yovvoyi hayvonlar va qushlarni o‘ziga jalb etishga, shu yerda yashashga, in qurishga va ko‘payishga sharoit yaratyapti.

2018-yilning 27-noyabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi qarorgohida nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham tarixiy voqea yuz berib, BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psheriklik trast fondi tashkil etildi. Mazkur fond Orolbo‘yidagi aholi turmush faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik, ijtimoiy himoya va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni, O‘zbekiston hukumati, BMT agentliklari, donorlik hamjamiyatlari sa’y-harakatlarini birlashtirish orqali mintaqa rivojiga birgalikdagi yordamni ta’minlash, uning rivoji uchun texnik hamda moliyaviy resurslarni safarbar qilish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Shu yilning boshiga qadar jamg‘arma strategiyasi doirasida Orolbo‘yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq, turli loyihalarni moliyalashtirish uchun 244 million dollarga yaqin mablag‘ jalb qilingan. Shu bilan birga, jamg‘arma tomonidan 5 ta qo‘shma dastur moliyalashtirildi.

Yana bir muhim jihat: 2021-yil 18-mayda BMT tomonidan qabul qilingan maxsus rezolyutsiyaga ko‘ra, Orolbo‘yi mintaqasi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur hujjat ijrosini ta’minlashga qaratilgan “Yo‘l xaritasi” belgilab olingan. Uning doirasida bugungi kunda 312 milliard so‘m, 22,2 million dollar va 6 million yevro ajratilgan 71 ta tadbir, shuningdek, qiymati 1,9 trillion so‘mlik 65 ta ustuvor innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Ayni kezda bu borada 230 ta loyihaviy taklif mavjud, ularning umumiy qiymati 210 million dollarni tashkil etadi.

Taraqqiyot strategiyasida ham Orol dengizi tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydon barpo etib, uning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Bu vazifa ijrosi ta’minlanishi Orolbo‘yi hududida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan ekologik fojia ta’sirini kamaytirish, odamlar hayotini yaxshilash va ularning orzu-niyatlari amalga oshishiga xizmat qiladi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Global ekologik jamg‘arma ko‘magida “O‘zbekistonning tog‘li va vodiy hududlarida o‘rmonlarni barqaror boshqarish” loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida Sirdaryo, Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridagi suvsiz yerlarda o‘rmonzorlar tashkil etildi. Bundan tashqari, cho‘llanish va yer degradatsiyasining oldini olish, shuningdek, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga tayyorgarlikni oshirish orqali landshaftlar mustahkamligini oshirishda Jahon banki tomonidan 142 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratish nazarda tutilgan bo‘lib, bu ham yashil maydonlarni kengaytirishga yo‘l ochadi.

Mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishga katta e’tibor qaratilyapti. Uning doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chati ekish rejalashtirilgan, shahar va aholi yashash hududlarimizdagi ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarni hozirgi 8 foizdan 2030-yilda 30 foizga yetkazish maqsad qilingan. Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari, ko‘chatlar ekish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgani aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qilyapti.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official

MILLAT FIDOYILARI

Sa’di Sirojiddinov KAMTARLIGI HAM, OLIMLIGI HAM IBRAT INSON

yoxud aspirantga joy bergan professor

XX asrning ikkinchi yarmida yurtimizda o‘z sohasida ilmiy maktab yaratgan, jahon ilm-fan olamida e’tirof etilgan allomalarimizni hanuz faxr bilan eslaymiz. Bu mavzuda so‘z yuritganda, albatta, matematik olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi Sa’di Sirojiddinovni eslab o‘tmay iloji yo‘q. Zotan, yuksak ilmiy salohiyatli olim faqat buyuk matematik bo‘lgani uchungina emas, yurtimiz ilm-fan sohasini yuksaltirish, xalqimiz, millatimiz vakillaridan malakali va yetuk kadrlar tayyorlashdagi fidoyiligi uchun ham katta hurmat-e’tibor qozongan. U oliy ta’limdagi pedagoglik faoliyati davomida milliy kadrlar sha’ni va qaddini ko‘tarish uchun ham kurashib, katta o‘zgarishlarni amalga oshira bildi.

Esimda, 1965-yili 3-kursda o‘qib yurgan kezimiz kursdoshim Riqsivoy Yusupov fizika fakultetining optika kafedrasiga yarim stavkada laborant bo‘lib ishga joylashganini xursand bo‘lib aytar ekan: “Bilasizmi, Mansur, ushbu kafedrada mengacha birortayam o‘zbek bo‘lmagan. Barcha domlalar rusiyzabon, kafedra mudiri esa Notsenko degan dotsent ekan”, dedi. Shundan so‘ng fakultetimizdagi boshqa kafedralar mudirlari kimligi haqida fikrlasha boshladik. Radiofizikada — Lyubensov, umumiy fizikada — Andreyev, elektronikada — fan nomzodi, professor Shuppe, yarimo‘tkazgichlar fizikasida — professor Gedeon Avakyans, astrofizikada — akademik Sheglov, yana qaysinisidadir Revzin, yadro fizikada yana kimdir... Gapning qisqasi, biror-bir kafedra mudiri o‘sha paytda o‘zbek tugul, qozoq yoki tatar ham emas. Fakultetimiz dekani esa B.Smirnov edi.

1966-yili 4-kursni tugallayotgan kezlarimiz ToshDU (hozirgi O‘zMU)ga akademik Sa’di Sirojiddinov rektor etib tayinlandi. Domla kelishi bilan ketma-ket yangiliklarga qo‘l ura boshladi. Jumladan, universitet xodimlari uchun uy ajratilishiga erishdi. O‘sha pallada o‘z uylaridan nisbatan yaxshiroq kvartira olishga elektronika kafedrasi mudiri Shuppe hamda yarimo‘tkazgichlar kafedrasi mudiri Gedeon Avakyans da’vogarlik qilgan. Biroq Sa’di aka bunga unamaydi. Natijada ular bizdek olimga yon bosmading, deya rektorga achchiq qilib, ikkisi ham oldinma-ketin O‘zbekistondan ketib qoladi. Keyinchalik hamyurtlarimizdan biri Yerevanga borganida Avakyans Toshkentda o‘tgan yillarini eslab, o‘kinib yig‘lagan ekan. Shuppe esa Ryazan shahriga ketgan, biroq u yerda ham el bo‘lmaydi...

Ikki olim ketgach, ortidan shogird-u izdoshlari ham boshqa yurtlarga jo‘naydi. Natijada kafedralarni boshqarishga tegishli sohalarda fan nomzodi darajasiga ega mutaxassis topilmay qoladi. U paytlari nazariy fizika bilan shug‘ullanuvchi olimlarning alohida kafedrasi bo‘lmay, yarimo‘tkazgichlar kafedrasi shtatida dars berib yurardi. Shunda Sa’di Sirojiddinov bo‘shab qolgan kafedra mudiri o‘rnini to‘ldirish uchun milliy kadr qidira boshlaydi. Bu orada kafedra yopilishi ehtimoli paydo bo‘ladi. U davrlarda kafedra yopilsa, qayta ochish uchun Moskvadan ruxsat olish kerak bo‘lar, buning uchun esa bir necha yil ketishi turgan gap edi.

Kafedrani saqlab qolish maqsadida Nukus davlat universitetidan iltimos qilib, dotsent Yembergen Jaqsimov bir yilga olib kelinadi. U yarimo‘tkazgichlar kafedrasiga mudir qilib tayinlangan. Shu yo‘l bilan kafedra saqlab qolinadi.

Rektorat kafedra mudirligiga nomzod Alisher Teshaboyevning fan nomzodi dissertatsiyasini yoqlashini tezlashtiradi. Nihoyat yosh olim fan nomzodi diplomini qo‘liga olgach, kafedra mudiri etib tayinlanadi.

Yangi o‘quv yilidan Nizomiy nomidagi pedagogika instituti (hozirgi universitet) dotsenti Rahmatulla Mallin fizika fakultetida dekan lavozimida ish boshladi. Sipo, salobatli bu insonni 5-kursda diplom ishini yoqlayotganimizda birinchi marta ko‘rgandim. U o‘z paytida Stalin qatag‘oniga uchragan o‘zbek olimlaridan edi. Chamamda, Mallin uning taxallusi bo‘lgan. U bilimli, dadil va jur’atli bo‘lgani bilan ko‘pchilikning nazariga tushgan.

O‘shanda umumiy fizika kafedrasiga assistent qilib ishga olingandim. Dekanatda Rahmatulla Mallin olib borgan yig‘inlarda ham bir necha marta ishtirok etganman. O‘shanda ham o‘zlarini “katta og‘a” deb hisoblaydigan ayrim olimlar turli bahona bilan Mallindan ayb qidirib, uning fakultetdagi faoliyatidan norozi ekanligini aytardi. Rahmatulla Mallin so‘zga chechan, oqil, rus tilida biyron gapira olishi sababli e’tiroz bildiruvchilarning popugini pasaytirib qo‘yardi. Holbuki, u biror marta ham hech kimga po‘pisa qilmagan. Aksincha, opponentlarining fikri xato bo‘lsa, buni qator misollar bilan isbotlab berish orqali adolat qaror topishiga erishardi.

1969-yilga kelib, elektronika kafedrasini Adham Odilov, radiofizikani — Hojimuhamedov, umumiy fizikani — G‘iyos Umarov, yarimo‘tkazgichlar kafedrasini — Alisher Teshaboyev, nazariy fizikani Rahmatilla Mallin boshqara boshladi. Qisqasi, Sa’di Hasanovichning rektorlik davrida fizika fakultetidagi barcha kafedralar mudirligini o‘zbek pedagoglari boshqara boshladi. Yarimo‘tkazgichlar kafedrasi ikkiga ajralib, biri yarimo‘tkazgichlar, ikkinchisi nazariy fizika kafedrasi bo‘ldi. Nazariy fizika kafedrasini R.Mallin boshqara boshladi. Rektor yuqori darajadagi ilmiy ishlari, pedagoglik faoliyati uchun olimga professor ilmiy unvoni berilishiga erishdi. Bular juda ham katta ijobiy o‘zgarishlar edi. Vaqti kelib, Alisher Teshaboyevga ham professor ilmiy unvoni berildi. O‘z navbatida, professor ham kafedraning bir necha yetuk yosh mutaxassislarini o‘sha davrdagi ilmiy markazlarga aspiranturaga o‘qishga yubora boshladi. Bunday holatlar universitetning barcha fakultetlarida ham kuzatilganiga mutlaqo shubham yo‘q. Umuman, bu ijobiy o‘zgarishlarning barchasiga rektor bosh edi.

O‘sha yillari universitetga respublika rahbari Sharof Rashidov ham tez-tez borgani va rektor Sa’di Sirojiddinovning ushbu ijobiy o‘zgarishlariga yuqori baho berganini eshitganman.

Avvaliga kursdoshlarim Muhammadkabir Bahodirxonov hamda Qahhor Abdurahmonov Leningraddagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi institutiga jo‘natildi. Ulardan bir oz keyin qozoq yigiti Serek Kumekov Leningrad fizika-texnika institutiga yuborildi.



Serek fan doktori bo‘lgach, Qozog‘istonga ko‘chib ketdi hamda Fanlar akademiyasi akademigi bo‘ldi. O‘sha paytda undan avvalroq jo‘natilgan qozoq yigiti Xudayberdi Abduvohidov ilmiy ish olib borayotgan edi. Izlanish qilishi uchun unga barcha sharoit yaratildi.

1969-yilning kuzida men bilan ayolimni ham Leningradga yuborishdi. Hozir shular haqida o‘ylasam, milliy kadrlarni tayyorlash uchun o‘sha yillardagi universitet rahbariyati naqadar vatanparvarlik, fidoyilik qilganiga, millatimiz kelajagi uchun yonib yashaganiga tan beraman. Yashash uchun joylashib olgan kezlarimiz yarimo‘tkazgichlar kafedrasining Toshkentdan diplom himoyasiga chiqqan o‘ndan ortiq talabasi Leningradga keldi hamda biz turgan yotoqxonadan joy oldi. Ko‘p o‘tmay, ilmiy ishimiz qanday borayotganidan xabar olgani Alisher Teshaboyev kelib ketdi. Shunday xabar olishlar tez-tez bo‘lib turar va domla bizga doim: “Siz bu yerga diplom ishi yozish uchungina kelmagansiz, balki keyinchalik fan nomzodi dissertatsiyasini yoqlashga yo‘l ochish, o‘zlaringizga ilmiy rahbar topish uchun kelgansiz. Aspiranturaga kelganlar faqat fan nomzodi bo‘lish emas, keyinchalik fan doktori bo‘lish uchun ham poydevor qo‘yaverishi kerak. Sira bo‘shashmanglar, bir kunni ham bekor o‘tkazmanglar”, deya pand-nasihat qilardi. Domlaning o‘gitlari bekor ketmadi. A.F.Ioffe nomli Fizika-texnika institutida yurtdosh olimlarimiz fan doktorlari, professorlar, akademiklar bo‘ldi. Ko‘plab fan nomzodlari shu dargohda yetishdi. Shuningdek, O‘zbekistondan kelgan yuzdan ortiq talaba ham ushbu institutda diplom ishini muvaffaqiyatli yoqlagan. Bunday jarayon o‘sha davrning eng yetuk ilmiy markazlari bilan hamkorlikda olib borildi. Bu sa’y-harakatlar ortida ham Sa’di Sirojiddinov turardi.

Umuman, 1956-yildan 1982-yilgacha bo‘lgan davrni xalqimizning milliy tiklanish, qaddini ko‘tarishga kuchli intilish, kurash davri bo‘lgan, degim keladi. Xalqimizning ushbu milliy tiklanish davrida, ayniqsa, amalini ham, jonini ham yo‘qotishdan qo‘rqmay, jonbozlik qilgan — Habib Abdullayev, Sa’di Sirojiddinov, Sodiq Azimov, Toshmuhammad Sarimsoqov, Po‘lat Habibullayev, Vosil Qobulov, Hamid Sulaymon, Ibrohim Mo‘minov, Toshmuhammad O‘rozboyev, Rahmatulla Mallin, Alisher Teshaboyev kabi fidoyi olimlarimizning xizmati katta. Ularning safi juda keng edi. Shuning uchun o‘sha pallani bir og‘iz jumla bilan “O‘zbek ziyolilarining uyg‘onish davri”, deya atagan bo‘lardim. Basharti, o‘sha uyg‘onish bo‘lmaganida, davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin olimlar yetishmovchiligidan ko‘p aziyat chekishi turgan gap edi.

Sa’di Sirojiddinovning ilmiy ishlari ko‘p, ular, asosan, o‘zgaruvchili klassik ko‘phadlarning muhim xossalariga bag‘ishlangan. Olimning ba’zi yo‘nalishdagi tadqiqotlari 1950-yillarda Toshkent matematika maktabining yanada yuksalishiga olib keldi. U ehtimollar nazariyasi sohasidagi yutuqlarni matematik statistikada qo‘lladi.

O‘tgan asrning 60-yillarida Sa’di Sirojiddinov va shogirdlari o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan hamda Markov zanjirini tashkil qiluvchi tasodifiy miqdorlar va tasodifiy vektorlar yig‘indisi uchun limit teoremalarga doir muhim masalalarni hal qildi. Shu masalalar bilan bog‘liq tekis baholashlarga oid tadqiqotlari katta tatbiqiy ahamiyatga ega. Olim ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasi, statistikaning turli sohalari, statsionar jarayonlar nazariyasi va boshqa sohalarda ham keng ko‘lamda tadqiqot olib borgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosini o‘rganishda, mintaqa, xususan, mamlakatimiz uchun yuqori malakali matematik mutaxassislar tayyorlashda akademikning xizmati katta. Shuningdek, yosh matematiklar maktabini tashkil etish hamda shu yo‘nalishda olimpiadalar o‘tkazishga muayyan hissa qo‘shgan. Sohadagi yuksak xizmatlari e’tirof etilib, 1966-yili Bernulli nomidagi xalqaro matematik statistika va ehtimollar nazariyasi jamiyati (Niderlandiya) ning haqiqiy a’zosi etib saylangan.

Domlaning xalqimiz kelajagi yo‘lida qilgan xizmatlari ulkan. U millatimizga, ilm-fanga jonkuyar inson sifatida betinim ishlagan, kurashgan. Sa’di Sirojiddinov doktorlik dissertatsiyasini yoqlagandan so‘ng ustozining tavsiyasi bilan 1953-1956-yillarda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining mexanika-matematika fakulteti professori bo‘lgan.

Domla buyuk bo‘lish bilan birga, juda ham odmi, kamtar inson bo‘lgani xususida xalq orasida turli gap-so‘zlar yuradi. Aytishlaricha, bir kuni Sa’di Hasanovich poyezdda Toshkentdan Moskvaga jo‘naydi. O‘ttiz yoshdagi professorga to‘rt kishilik kupening pastki qavatidan joy berilgan edi. Ittifoqo, o‘sha kupega barvasta, galstuk taqqan, bashang kiyingan olifta o‘zbek yigiti kiradida: “Qani, yigitcha, kattalarni hurmat qilmaysanmi? Darrov tepaga chiqib, menga joyni bo‘shat-chi”, deydi. Sa’di aka hech e’tirozsiz, tepadagi o‘ringa joylashib oladi. Moskvaga yetib borishgach, haligi olifta: “Qani, xayrlashish oldidan tanishib olaylik: men, Falonchi Falonchiyev, MGU (Moskva davlat universiteti) aspiranti”, deya Sa’di aka tomon qo‘lini uzatadi. Shunda domla ham sherigining qo‘lini siqaturib: “Tanishganimdan xursandman, men, MGU professori Sa’di Hasanovich Sirojiddinovman”, deydi. Shunda haligi aspirant hangu mang bo‘lib qoladi. Chunki u Moskva davlat universiteti professori Sirojiddinov haqida eshitgan, lekin o‘zini biror marta ko‘rmagan ekan...

Mansurxon TOIROV,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

BOQIY MEROS

MO‘TABAR MANBA

“Sahihi Buxoriy”ga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otish kimga kerak bo‘lib qoldi?

Otabek MUHAMMADIYEV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o‘rinbosari

Tarixdan ma’lumki, buyuk muhaddislarimizga ta’na qiluvchi, hadis va sunnatga nisbatan ommada shubha uyg‘otuvchi toifalar turli davrda turli nomlar bilan o‘z imzolarini qo‘yishga ishtiyoqmand bo‘lgan. Ularning aksariyati, asosan, Imom Buxoriy va “Al-Jome’ as-sahih” asariga nisbatan g‘arazli harakatda bo‘lgani va bugungi kunda ham mazkur illat dunyoning turli burchaklarida ko‘rinish berayotgani hech kimga sir emas.

Gap shundaki, xalq orasida “Sahihi Buxoriy” nomi bilan tanilgan “Al-Jome’ as-sahih” asari ba’zida tanqidlar nishoniga aylanadi. “Sahih”ga nosahih qarashlarning ayrimlari xorijdan boshpana topib, homiylari qo‘lidan yegan non-tuzini oqlashga urinayotgan ba’zi bir imoni zaiflar tilidan aytilayotgan bo‘lsa, yana ayrimlari oramizda turib, ularning fikriga qo‘shilayotgan kimsalar tilidan yangramoqda. Maqsad nima? Maqsad musulmonlarda “Sahihi Buxoriy”ga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otishdir.

Biz Imom Buxoriy va uning asarini tanqid ostiga oluvchilar islomga o‘z tamoyillari (buzg‘unchi!) asosida qarayotganini uqtirgan holda ko‘rsatilayotgan vajlardan birini o‘rganib chiqishga, haqiqat aslida qanday ekanini ko‘rsatib berishga harakat qilamiz.

Avvalo, bu da’vo, ya’ni hadislar orasida ayol sha’nini kamsitadiganlari ham borligi da’vosi sanad yoki lafzdagi ayrim tafovutlar bilan takrorlanib kelgan bir necha hadisga asoslangan. Masalan, “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Ey ayollar jamoasi! Sadaqa qilinglar, chunki men do‘zax ahlining ko‘pchiligi sizlar ekaningizni ko‘rdim”, dedilar. Shunda ayollar: “Ey Allohning Rasuli, nimaga shunday?” deyishdi. U zot alayhissalom: “La’natni ko‘p ishlatasizlar, erlaringizga noshukrlik qilasizlar”, dedilar” hadisi shular jumlasidandir.

“Sahihi Buxoriy”da ayollarning sha’ni va ishlariga tegishli yuzlab hadislar kelgan. Shulardan biri “Bir ayol mushuk sababli do‘zaxda azoblandi. U mushukni qamab qo‘ygan edi. Shu sababli jahannamga kirdi. Qamab qo‘yganiga yarasha taom ham, ichimlik ham bermadi yoki yer yuzida rizqini topib yeyishga ham qo‘ymadi” hadisidir. Aql sohibi borki, shu ishni erkak kishi qilgan taqdirda ham oqibati aynan o‘sha ayolnikidek bo‘lishiga shubha qilmaydi. Demak, bu “Sahihi Buxoriy”dagi hadislarda ayollar sha’ni kamsitilgan, deb da’vo qilishga sabab bo‘la olmaydi. Shuningdek, bu kabi hadislarning aksariyati shar’iy hukmni bayon qilish yoki pand-nasihat berish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish ma’nosida kelganki, ularda maqtov ham, ta’na qilish ham yo‘q.

Imom Buxoriy boshqa sahih to‘plamlardagi ayollar haqida gap ketgan hadislarning ayrimlarini sahihga chiqarmagan.

Mutafakkir bobomiz o‘zining “Sahih”ida Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam bilan zamondosh bo‘lgan, u zotning da’vatlaridan ta’sirlangan ayollarni namuna sifatida tilga olib o‘tgan. O‘sha davr ayollariga Payg‘ambar alayhissalomning munosabati qanday bo‘lganini yoritib beruvchi hadislardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Oysha roziyallohu anho g‘azotlarning birida Payg‘ambar alayhissalom yonlarida edi. U singlisi Asmoning munchog‘ini ham o‘zi bilan olib yurgandi. Oysha roziyallohu anho o‘sha munchoqni yo‘qotib qo‘ydi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, u zotga qo‘shilib odamlar ham munchoqni izlashga tushishdi. Hatto ba’zilar Abu Bakr roziyallohu anhuning oldiga borib: “Oysha nima ish qilganini ko‘rmaysizmi? Rasululloh va odamlarni suvsiz qoldirdi”, dedilar. Shunda u Oysha roziyallohu anhoning oldiga borib, qizini koyidi va qo‘li bilan uning biqiniga og‘ritadigan qilib niqtay boshladi. Payg‘ambar alayhissalomning boshlari Oysha roziyallohu anhoning tizzalari ustida bo‘lgani uchun o‘rnidan turib keta olmadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o‘rinlaridan turdilar. Tong yorishib qolgan, ammo suv yo‘q edi. Shunda tayammum qilish haqidagi oyat nozil bo‘ldi. Usayd ibn Huzayr Oysha roziyallohu anhoga: “Alloh Sizni munosib taqdirlasin. Allohga qasamki, sizga sizni xafa qiladigan biror tashvish tushsa, albatta, Alloh o‘sha ishni musulmonlar uchun yaxshilik qilib qo‘yadi”, dedi.

Bu hadisdan aniq ko‘rinib turibdiki, erkak sahobalar Oysha roziyallohu anho munchoq uchun qattiq qayg‘uga tushib qolganini arzimas ish deb sanagan, uni deb qo‘shinni yo‘ldan olib qolish to‘g‘ri emas, deb bilgan. Lekin munchoq Oysha roziyallohu anhoning mulki emasdi. Shuning uchun birovning molini yo‘qotib qo‘yishdan qattiq tashvishga tushib qolgan edi. Alloh taolo uni mana shu ishi uchun ikki marta mukofotladi. Birinchisi, u munchoqni tuyaning tezagi tagidan topib oldi. Ikkinchisi, suv topa olmaganlar yoki uzrli kishilar uchun tayammum qilishga ruxsat berilishiga sabab bo‘ldi (Imom Buxoriy rivoyati, 327-hadis).

Imron ibn Husayn roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam bilan bir yurishda birga edik. U zot meni o‘z oldilaridagi markabga qo‘ydilar. Juda ham qattiq chanqadik. Yurib borayotsak, bir ayol ikki ko‘zaning orasida oyog‘ini osiltirib o‘tiribdi. Biz unga: “Suv qayerda?” dedik. “Suv yo‘q”, dedi u. “Sening ahling bilan suvning orasi qancha?” dedik. “Bir kechayu bir kunduz”, dedi u. “Yur, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oldilariga!” dedik. “Rasululloh nima?” dedi u. Biz uni holi joniga qo‘ymay, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning qarshilariga olib bordik. U bizga aytgan gaplarini U zotga ham aytdi. Faqat U zotga yetim bolalari borligini ham aytdi. Bas, U zot uning ikki ko‘zasini olib kelishga amr qildilar va qo‘llari ila ularning og‘zini siladilar. Biz qirq nafar chanqoq kishi undan ichib serob bo‘ldik. O‘zimizning barcha ko‘za va meshkoblarimizni to‘lg‘azib oldik. Tuyalar suvga to‘yganidan yorilib ketay dedi. So‘ngra U zot: “O‘zingizda bor narsalarni keltiringlar”, dedilar. Biz u ayolga o‘zimizdagi non burdalari va xurmolarni yig‘ib berdik. U o‘z ahliga borib: “Men odamlarning eng sehrgariga yoki ular da’vo qilayotganidek Payg‘ambarga uchradim”, dedi. Alloh o‘sha ayol sababli u ko‘chmanchilarni hidoyat qildi. U ham musulmon bo‘ldi. Ular ham musulmon bo‘ldilar” (Imom Buxoriy rivoyati, 337-hadis).

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Bir ayol: “Ey Rasululloh, Siz o‘tirishingiz uchun minbar yasatib beraymi? Chunki mening duradgor qulim bor”, dedi. U zot: “Agar xohlasang, minbar qilib ber”, dedilar” (Imom Buxoriy rivoyati, 437-hadis).

Abu Said Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Bir ayol Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: “Ey Allohning Rasuli, erkaklar hadisingizni ilib ketdi. Alloh Sizga bildirgan narsalardan bizlarga ham ta’lim berishingiz uchun o‘zingiz bir kunni tayin qilsangiz”, dedi. U zot: “Falon kuni falon joyda to‘planing”, dedilar. O‘sha kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ularning oldiga kelib, Alloh bildirgan narsalardan ularga ta’lim berdilar...” (Imom Buxoriy rivoyati, 6880-hadis).

Xulosa shuki, ayrim nopok kimsalarning “Sahihi Buxoriy”da ayollar sha’ni kamsitilgani haqidagi da’vosi asossiz. Chunki ayollarga tegishli mazkur hadislar ataylab buzib, noto‘g‘ri talqin etilgan. Zero, Imom Buxoriy rivoyat qilgan mazkur hadislar har xil lafzlar bilan boshqa sahih to‘plamlarda ham kelgan. Ammo bu kimsalar aynan “Sahihi Buxoriy”ni nishonga olgan, chunki u musulmonlar hech bir ikkilanishsiz qabul qiladigan, ishonchlilik borasida Qur’oni karimdan keyingi o‘rinda turadigan mo‘tabar manbadir.

SAN’AT

Har kimning o‘z yo‘li, ovozi bo‘lsin

O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev bilan suhbat

Hurmatli gazetxon. Ushbu suhbatni bundan yigirma yetti yil avval “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi uchun yozib olgan edim. O‘sha yillari gazetada tanqidiy mulohazali tazarru maqolalar ham e’lon qilganmiz. Taniqli kishilarga, ko‘proq ijodkor ziyolilarga bir oz achchiq, ammo ochiq qoldirish mumkin bo‘lmagan savollar ham berganmiz. Sherali Jo‘rayev savollarimizga biz kutgan darajada samimiy javob bergan. Ammo ularni e’lon qilishda ma’lum to‘siqlar paydo bo‘lib, matnni to‘la e’lon qila olmagandik. Bugun eski yozuvlarimni varaqlar ekanman, bu suhbat oradan shuncha yil o‘tishiga qaramay, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganday tuyuldi. Shu bois, uni muhtaram gazetxonlar hukmiga havola etishni lozim topdim.

— Muxlislar bilan suhbatlaringizdan birida “Keyingi paytda ko‘p o‘qidim, Hazrat Navoiy, Fuzuliy, Bobur Mirzoni qayta o‘qib chiqdim. Ko‘p narsalarni yangidan idrok etishga, avvallari e’tibor bermagan narsalarim mag‘zini chaqishga to‘g‘ri keldi”, dedingiz. O‘ylab ko‘rilsa, bu — keyingi yillarda yuzaga kelgan sharoit — o‘zlikni anglash, o‘zlikka qaytish bilan bog‘liq zaruratga o‘xshaydi. Biz kasbimizdan qat’iy nazar, ko‘p holatlarni, siz aytganday, qayta idrok etishimiz, millat oldidagi burchimiz, jamiyatdagi o‘rnimiz to‘g‘risida tanqidiy mushohada yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Men sizni shunday tushundim...

— Hazrat Navoiy, Fuzuliy va boshqa mumtoz shoirlarni o‘qiganda, odam yo‘qotib qo‘ygan qimmatbaho narsasini topib oladiku, o‘shanaqa bo‘larkan. Ko‘milib yotgan xazinani topib olganga o‘xshab ketasan. Boy bo‘p ketasan. Shunday qilishimiz kerak. Chunki bunga ehtiyoj bor. Hech kim seni “Mana bu kitoblarni o‘qi, bobolaring kimligini bil, ularga munosib bo‘l”, deb majbur qilmaydi. Allohdan ishoratday, o‘zing o‘zgara boshlaysan, o‘zing-o‘zingga tarbiyachi bo‘lib ketasan. Endilikda quruq, dardsiz, yaltiroq so‘zlardan iborat qo‘shiq kuylash qayoqda-yu, bir dunyo ma’noga ega bo‘lgan g‘azallarni shoirning dardini tushungan, aytmoqchi bo‘lgan fikrini yurakdan o‘tkazgan holda aytish qayoqda?! Bu mo‘tabar zotlarning mutolaasi inson tomirlaridagi qonni yaxshi aylanishga majbur qiladi, yangilaydi, dunyoni qayta idrok etishga, “olamda shunaqa narsalar ham bor ekan-ku”, deya o‘ylashga undaydi. San’atga kelganda, qalami, so‘zi ila mashhur zotlarning ko‘ngil faryodlari, sodda qilib aytsam — so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan yangi kechinmalarni xayolga keltiradi. Oynaga qaraganday, o‘zingga bir qarab oladigan payt keldi-da. Xuddi mana shu narsa xayolingga keldimi, tasavvur qildingmi, yuraging “jiz” etdimi, ana o‘shanda yangi, umri uzoq qo‘shiq yaraladi. Kishi qalbining mudrayotgan joylari uyg‘onadi. Tomirlar jonlanadi, harakatga keladi.

Mana, yoshimiz ham ellikka yetdi. Bu yoshdagi odam, u san’atkormi, boshqa kasb egasimi, yosh yigitning qilig‘ini qilavermaydi-da. Shu bois, o‘zimizga o‘zimizning savolimiz, qarashlarimiz, baho berishimiz endilikda boshqacharoq bo‘lishi kerak. Siz tilga olgan ulug‘ zotlarning mo‘tabar kitoblarida bu savollarga javob bor. Shunaqa javoblar borki, ular sizni shu ondayoq o‘zgartiradi, ko‘nglingizga chiroq tutadi, xato ishlaringizdan xijolat tortib ketasiz.

Bundan yigirma-yigirma besh yil avval kuylagan qo‘shiqlarimni eslayman. Ularning eshituvchilari, haqiqiy ixlosmandlar, nazarimda, endi-endi paydo bo‘layotganday. Lekin o‘sha qo‘shiqlarni ham bugungi kun nigohi bilan ko‘rib chiqishimga to‘g‘ri kelyapti. Yengil-yelpi ashulalar ko‘payib ketdi. Bir marta eshitiladigan, shu bilan umri tugaydigan, unutiladigan sayoz, quruq xirgoyilar. Quloqni qomatga keltiradi, ammo nafi yo‘q. Insonning ruhini oziqlantirmaydigan, qalbini tarbiyalamaydigan har qanday “san’at”ning ma’naviy kamolotga, inson tarbiyasiga daxli yo‘q deb o‘ylayman. Negaki, ular bozor rastalarida qalashib yotgan, yaltiroq qog‘ozlarga o‘ralgan, lekin kishini kasal qiladigan chuchmal shirinliklarga o‘xshaydi.

Xullas, qo‘shiqchilikda ahvol bir oz murakkablashdi. Buni qarangki, bu holat odamlarning me’dasiga tega boshladi ham. Shularni ko‘proq kuzatdim, shu kuzatishlar jarayonida o‘zim kamroq ko‘rinishga harakat qildim. Ichi bo‘sh, yaltiroq qo‘shiqlar qilmaslikka harakat qildim, o‘zimni o‘zim ushlab turdim, chidadim shunga. Ammo fursatni bekor o‘tkazmadim, mutolaaga berildim. Navoiy Hazratlarining mana bu go‘zal, quyma satrlariga e’tibor bering:

Chun raqibimga raqib erdi habib, erdim tirik,
Naylay o‘lmaykim, habibimga habib o‘lmish raqib.
Yoki:
Ey Navoiy, umr o‘tar yeldek, o‘zungni shod tut,
Yelga yetmak mumkin ermastur chu sur’at ko‘rguzub.

Bu misralar hamisha ong-tafakkurimizda bo‘lishi kerak. Navoiydan uzoqlashish millat uchun juda katta xavf. Qani endi, buni tezroq tushunib yetsak.

— Mas’uliyat degan so‘zga qanday qaraysiz? Menimcha, hamma sohada ham mas’ullik hissisiz bir nimaga erishib bo‘lmaydi. Ishchi ham, dehqon ham, quruvchiyu tibbiyot xodimi, avvalo, mas’uliyatni his qilishi kerak. Bu endi hammaga oyday ravshan haqiqat. Elga tanilgan hofiz sifatida siz san’atkor mas’uliyatini qanday tasavvur qilasiz?

— Bu savolingiz birinchi so‘rovingizning mantiqiy davomi. San’atkor mas’uliyati, deganda gap yana mahorat bilan birga, san’atkorning tarbiyasi, odobi, did-farosati, savodi, demakki, el-yurt ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishiga borib taqaladi. Hofiz o‘z san’ati ila ruh, ko‘ngil tarbiyasiga daxldor inson, tarbiyachi. Yaxshi qo‘shiq tinglagan kishining qalbida nimalardir ro‘y bermog‘i kerak, aqlidrokida insoniy bir fazilat uyg‘onmog‘i, u o‘z hayotini, bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldi-yu, qanday ketishi kerakligini o‘ylamog‘i lozim. Bu — mubolag‘a gap emas. Oddiy qilib aytganda, yaxshi san’atkor insonlarni insoniylikka, yaxshilikka chorlamog‘i, oz bo‘lsa-da, ko‘ngliga, hayotiga yorug‘lik olib kirmog‘i shart. Bunga erisha olmaganlarni san’atkor, deb bo‘lmaydi. Muzeyda mashhur san’at asarini tomosha qilsangiz, xayolingizga didingizga yarasha fikr keladi. Suratda birov cho‘milayotgan ayolni, boshqa birov poklanayotgan dunyoni ko‘radi. Ulug‘ ustoz suhbatida bo‘lsangiz, u kishidan ko‘p narsa o‘rganasiz. Qo‘shiqning ham shunday vazifasi bor. Bu qulog‘ingizdan kirib, unisidan chiqib ketsa, bundan nima foyda?

Endi qarang-da: bugun qo‘shiqchiligimizda qanday manzara ko‘zga tashlanmoqda? To‘ylarga borib ko‘rsangiz, o‘zbekcha ashula, deb aytilayotgan ko‘p qo‘shiqlarning musiqasi o‘zbekcha emas. Bizning ming yillik milliy ruhimizga singmaydigan, didimizni o‘tmaslashtiradigan, ma’naviy merosimizga ziyon yetkazadigan qo‘shiqlardan qochishimiz kerak. Bunday holatdan tinglovchilardan avval san’atkorlar xavotirga tushishlari zarur. “E, bu nima bo‘lyapti o‘zi, bizni eshitishmayapti-ku”, degan hadiksirash, ya’ni moli o‘tmayotgan savdogarlarning ahvoli kabi holat bo‘lishi lozim. To‘ylarga san’atkorlar ko‘pincha obro‘sini, bunga qo‘shib sadoqatli muxlislarini ham yo‘qotish uchun borayotganday. Odamlar, masalan, ashula eshitmay, yeb-ichib, birov latifa aytsa, qah-qah otib o‘tiraveradi, taomlar peshma-pesh kelib tursa bo‘ldi, ashulani eshitmaydi. Shunday vaziyatda terga botib qo‘shiq kuylayotgan san’atkorning ahvolini tasavvur qilasizmi? Bu holatning boshqa sababi ham bor — eshituvchi eshitadigan, tushunadigan, ibrat oladigan, ta’sirlanadigan ashula aytilmayapti-da. Muammo shunda. Aytilayotganlarining aksariyatida esa fikr, ta’sir, tarbiya yo‘q.

Qarang, kuy chalinganida ikki-uch yoshli bola ham o‘zicha u yon-bu yonga qimirlaydi, tebranadi, e’tibor berganmisiz? U hali tushunmaydi, bilmaydi musiqa nimaligini, ammo o‘zi bilmagan holda tebranadi. To‘y-tomoshalardagi ashulalarning qalb va ruhga daxli yo‘q, chunki ular asosan yig‘ilganlarni raqsga tushirish uchun qilingan muvaqqat narsalardir. Bu — juda achchiq gap, ammo holat shundayki, boshqacha aytish, boshqacha baholash mumkin emas.

> **Qarang, kuy chalinganida ikki-uch yoshli bola ham o‘zicha u yon-bu yonga qimirlaydi, tebranadi, e’tibor berganmisiz? U hali tushunmaydi, bilmaydi musiqa nimaligini, ammo o‘zi bilmagan holda tebranadi. To‘y-tomoshalardagi ashulalarning qalb va ruhga daxli yo‘q, chunki ular asosan yig‘ilganlarni raqsga tushirish uchun qilingan muvaqqat narsalardir. Bu — juda achchiq gap, ammo holat shundayki, boshqacha aytish, boshqacha baholash mumkin emas.**

Demak, san’atkor o‘z o‘rnini, darajasini bilmog‘i kerak. Shu darajani ushlab turishi zarur. Yaxshi hofiz bo‘lib elga tanildingiz, odamlar sizni qo‘shiqchi sifatida hurmat qilyaptimi, shunga yarasha bo‘ling-da, birodar. Odamlar sizni zo‘r desa-yu, ikki-uchta qo‘shiqdan keyin tugab qolsangiz, boshqa hech narsa bilmasangiz, boshqalarning ashulasini aytsangiz, boshqa yo‘llarga burilib ketsangiz, o‘z yo‘lingizni topolmasangiz, siz eshituvchini emas, eshituvchi sizni tarbiya qila boshlasa, bu endi juda xunuk manzara.

Mas’uliyat kasb-koridan qat’iy nazar, har bir odamning yelkasiga katta yuk yuklaydi, uni ko‘tara bilish kerak. Shu diyorda tug‘ilib, shu joyda voyaga yetdingizmi, shu Vatanning farzandi bo‘lib yashayapsizmi, unga foyda keltirishingiz kerak. Birov mehnati, birov ixtirosi, san’atkor esa san’ati bilan.

> **Mas’uliyat kasb-koridan qat’i nazar, har bir odamning yelkasiga katta yuk yuklaydi, uni ko‘tara bilish kerak. Shu diyorda tug‘ilib, shu joyda voyaga yetdingizmi, shu Vatanning farzandi bo‘lib yashayapsizmi, unga foyda keltirishingiz kerak. Birov mehnati, birov ixtirosi, san’atkor esa san’ati bilan.**

— Keyingi yillarda milliy qo‘shiqchilik rivojiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ammo natijalar qoniqarli emas. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

— E’tibor berilayotgani yaxshi, albatta. Buni hammamiz ko‘rib, his etib turibmiz. Milliy qo‘shiqchilik degani cheksiz, qamrovsiz tushuncha. Nima deyilganda ham, qo‘shiq haqida har qanday baho uning aytuvchisiga, ya’ni qo‘shiqchiga borib taqaladi. Demak, milliy qo‘shiqchilikni millatning dard-u quvonchi, iztirob-u armonlari, sog‘inch-u sevinchlari aks etgan qo‘shiqlar taraqqiy ettiradi. Shukrki, bir-birini takrorlamas ajoyib hofizlarimiz bor. Ularni el ardoqlaydi, ular hamisha e’zozda. Ammo yana bir holatni e’tibordan soqit qilmaslik kerak. Yaxshi qo‘shiq, yillar davomida o‘zining ma’no-mohiyatini yo‘qotmaydigan san’at asarlari har kuni paydo bo‘lmaydi. Shunday qo‘shiqlar borki, ijrochi uni butun umri davomida yaratadi. Ba’zan ulgurmay ham qoladi. Mening javobim shuki, san’atkor bir umr izlanishi, o‘z qo‘shig‘ini, yo‘lini, aytadigan so‘zini axtarishi zarur. O‘zing topgan yo‘ldan yurish naqadar yoqimli, hech kim “Hoy, bu yerda nima qilib yuribsan?”, demaydi.

— O‘zingizga o‘zingiz tanqidiy ko‘z bilan ham qaray olasizmi? Ma’zur tutgaysiz, katta yutuqlar, muvaffaqiyatlar ora-sirasida yana “nima”lardir ko‘zga tashlanib, quloqqa chalinib ham turadida...

— Juda nozik, ammo javob qaytarsa bo‘ladigan savol. Xalqimiz azal-azaldan san’at ahliga, xususan, hofizlarga mehr-oqibat ko‘rsatib kelgan. Muxlislar el-yurt mehrini qozongan hofizlarning hurmatini joyiga qo‘yadi o‘zlariga yaqin oladi, to‘ylariga, yaxshi kunlariga taklif etadi.

San’atdagi ozmi-ko‘pmi mehnatim, izlanishlarim tufayli men ham shunday muruvvatlardan chetda emasman. Taklif ko‘p. Qayerga borsangiz, samimiy iltifot, izzat-ikrom. Ammo bilasizmi, bunday munosabat ba’zan odamni chalg‘itadi. Negaki, yutuqlar qanotida nima ish qilsangiz, nima so‘z aytsangiz, to‘g‘riga o‘xshab ko‘rinadi. Xato gapirayotgan bo‘lishingiz ham mumkin-ku. Muxlislar sizga xayrixohlik bilan qarayotgani, yigirma-o‘ttiz yildan beri ularning eng quvonchli kunlarida birga bo‘lganingiz sababli sizga shunday tuyuladi. Shu sabab xatolaringizni ular ko‘rmaydi. Ko‘rsa ham betingizga aytgilari kelmaydi. Odamning yuzi issiq, “Ha, ustoz bir erkalik qilsa, qilibdida, ustozniki tabarruk”, deyishadi, xolos. Kamchiliklarimga, o‘zimga tanqidiy ko‘z bilan qarashda mana shu jihatlarni ko‘p o‘ylayman. O‘zimizdan o‘tgan xatolarga javob tariqasidagi munosabatni vaqtida anglab yetmaganimizning boisi ham shunda. Tanqidiy ko‘z bilan qarayman, desa kamchiliklarimiz yetarli. Hammamiz Allohning bandasimiz.

— Lekin kamchiliklarni sezish boshqa, ularni takrorlamaslik, tuzatish boshqa bo‘lsa kerak?

— Albatta. Bu fikringizga qo‘shilaman. Shu yerda bir fikrni ochiq aytishim kerak. Tanqid ko‘plarga yoqmaydi. Ayniqsa, achchiqrog‘i. Bizni ustoz deydigan shogirdlar ko‘p, ularga-ku, kamchiliklarini tushuntirish mumkin, tushunadi, tuzatadi ham. Biroq sahnada birga kuylayotgan, san’atda birga-birga qadam tashlayotgan, elga tanilib bo‘lgan ba’zi qadrdonlarga bir nima desangiz, qabul qilishlari qiyin, to‘g‘ri tanqidni hasad deb biladiganlar ham yo‘q emas. Ana endi buyog‘ini tasavvur qilavering.

— Umrida biror marta qo‘shiq kuylamagan, xirgoyi qilmagan odamni uchratish qiyin. Bugun milliy qo‘shiqchiligimizda ijrochilar soni behad ko‘payib borayotganini qanday baholash mumkin?

— Yuragida zavqi bor odam nog‘ora chalinsa, hatto oddiy qarsakka ham o‘ynaydi. Masalan, bizning Andijonda, Farg‘onada yog‘och oyoqni kiyib, surnay, nog‘ora chalib, lo‘li bolalar to‘y bo‘layotgan, osh berilayotgan joyga kunduzi kirib keladi. O‘yinga tushadi. Ularning qo‘liga uch-to‘rt so‘m pul beriladi, o‘ynab-o‘ynab chiqib ketadi. Ularning changi bosilmay, yana boshqa “ansambl” kirib keladi. To‘y egasi hayron, ammo “E, to‘xtanglar, hozir kelib ketishdi-ku”, demaydi.

Siz aytayotgan “ijrochi”lar soni behad ko‘payib borayotganini men shu holatga qiyoslayman, o‘sha manzara ko‘z oldimga keladi. Xuddi shunga o‘xshab qoldi ko‘p ijrochilar. Ko‘plari shunchaki tirikchilik uchun harakat qiladi. Mana shunday holatga tushib qolmaslik kerak, degan xulosaga kelaman ba’zan. Duch kelgan so‘zni, mana bu narsa ketarkan, deb aytaverish to‘g‘rimas, bir-ikki so‘mlik bo‘laman deb, yillab yiqqan obro‘yingizni to‘kmasligingiz kerak. Sabab, bahona ko‘p, biroq vaqt — oliy hakam, kuni kelganida hammasini joy-joyiga qo‘yib beradi.

— Yosh san’atkorlar orasida “Men Sherali Jo‘rayevning shogirdiman”, deydiganlar ko‘p. Buning yomon joyi yo‘q, albatta. Ammo shogird bo‘lishlikning ham ma’nosi bo‘lishi kerak, shunday emasmi? Ustoz ovoziga taqlid qilib, uning qo‘shiqlarini takrorlab, umr o‘tkazishni qanday baholash mumkin?

— Bir mahallar taqlidchilarga javob tarzida “Kuyla, faqat o‘z sozing bilan, qurbaqaday bo‘lsa ham hatto”, degan so‘zlarni qo‘shiq qilib aytishimga to‘g‘ri kelgan. Shogirdlarning bo‘lishi yaxshi, albatta. Lekin ustoz-shogirdlikning yozilmagan qoidalari bor. Me’yorni saqlay ololgan shogirdgina shogird hisoblanadi. Bizning qo‘shiqlarimizni aytib, bizga havas qilib sahnaga chiqayotgan hofizlar ko‘p. Ko‘plarining hatto ismlarini ham bilmayman. Tirikchiligini o‘tkazib, bolachaqa boqib yuribdi. Ko‘plari o‘zini tiklab olgan, endi esa boshqa bir yo‘l topishlari kerak.

Shogird ustozdan ashula aytish sirini o‘rganishi mumkin, biroq asl nusxani takrorlamasin. Mana bu ishlarni qarangda: deylik, bir to‘yda shogirdimiz bizning ovozda gumburlatib ashula aytyapti, shu payt biz kirib kelamiz, odamlar endi bizdan, ya’ni asl nusxadan eshitgisi keladi. O‘z-o‘zidan haligi hofiz yo‘q bo‘lib turibdida. Bu tomonlari ham bor. Ba’zan mening ichim achishadi shu holatlarga. O‘zimga emas, ularga ichim achishadi. Negaki, mening yo‘limda aytayotgan odam, o‘sha men kirib chiqqan yo‘llarga yana qaytadan kirib chiqishiga to‘g‘ri keladi. Buning esa hech kimga qizig‘i yo‘q. Shuning uchun bu yo‘lga kiradigan har bir kishi o‘z yo‘limni topaman, deb kirmog‘i, shunga jon-jahdi, qalbi, vujudi bilan intilmog‘i kerak. Maslahat shu.

Suhbatdosh:
Ahmadjon MELIBOYEV.
1996-yil, avgust

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK
MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.
41011 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Topshirildi — 22:50